

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


2024- yilning yanvar-dekabrida tashqi savdo aylanmasi 1 146,9 mln. AQSH dollari tashkil etdi, shundan 514,1 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 632,8 mln. AQSH dollarini import operatsiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining manfiy saldosini -101,2 mln. AQSH dollari tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

	yanvar-dekabr		2023- yilning yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida
	2023- y.	2024- y.	
Tashqi savdo aylanmasi	737 760,7	1 146 934,7	155,5
shu jumladan:			
MDH davlatlari	172 035,2	170 799,4	99,3
boshqa davlatlar	563 551,3	976 135,3	173,2
Eksport	427 623,5	514 103,7	120,2
shu jumladan:			
MDH davlatlari	115 989,2	124 704,9	107,5
boshqa davlatlar	310 124,8	389 398,8	125,6
Import	310 137,2	632 831,0	2,0 m.
shu jumladan:			
MDH davlatlari	56 046,0	46 094,5	82,2
boshqa davlatlar	253 426,5	586 736,5	2,3 m.

**Yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



**Yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati
eksport-importi tarkibi**


	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				<i>2023- yil yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil</i>		<i>2024- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
Eksport tarkibi	426,1	100,0	514,1	100,0	120,2
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	64,7	15,2	71,7	13,9	110,7
Ichimlik va tamaki	0,6	0,1	0,7	0,1	112,3
Yoqilg'idan tashqari oziq-ovqat hom-ashyo	0,1	0,0	0,0	0,0	44,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	85,3	20,0	172,6	33,6	2,2 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,2	0,5	1,3	0,2	58,3

davomi

	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				2023- yil yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida
	<i>2023- yil</i>		<i>2024- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,1	3,8	0,7	40,3
Sanoat tovarlari	259,8	61,0	251,4	49,0	96,8
Mashinalar va transport asbob uskunalar	4,9	1,1	2,4	0,5	48,8
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	0,1	0,0	0,0	0,0
Boshqalar	3,8	0,9	3,8	0,7	100,6
Xizmatlar	4,2	1,0	6,4	1,3	153,2
Import tarkibi	309,5	100,0	632,8	100,0	2,0 m.
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,6	5,4	15,8	2,5	94,8
Ichimlik va tamaki	0,0	0,0	0,6	0,1	18,6 m.
Yoqilg'idan tashqari nooziq- ovqat hom-ashyo	6,2	2,0	6,6	1,0	107,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	11,4	3,7	11,1	1,7	97,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	28,0	9,1	62,6	9,9	2,2 m.
Sanoat tovarlari	36,5	11,8	20,6	3,2	56,4
Mashinalar va transport asbob uskunalar	199,8	64,8	507,9	80,3	2,5 m.
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	0,1	0,4	0,1	108,3
Boshqalar	7,7	2,5	6,8	1,1	87,7
Xizmatlar	1,8	0,6	0,5	0,1	24,5

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-dekabr oylari, hajmi mln AQSH dollari, ulushi foizda)


XXR	Rossiya	Qozog'iston	Turkiya	Pokiston
TSA – 271,3	TSA – 103,9	TSA – 24,6	TSA – 235,1	TSA – 40,8
Eksport: 22,8 Import: 248,6	Eksport: 81,3 Import: 22,6	Eksport: 15,1 Import: 9,4	Eksport: 66,3 Import: 168,8	Eksport: 35,9 Import: 4,9
23,7 %	9,1 %	2,1 %	20,5 %	7,9 %
Germaniya	BAA	AQSH	Afg'oniston	Eron
TSA – 37,1	TSA – 38,9	TSA – 118,7	TSA – 18,1	TSA – 13,8
Eksport: 0,5 Import: 36,6	Eksport: 37,2 Import: 1,7	Eksport: 113,6 Import: 5,1	Eksport: 16,9 Import: 1,2	Eksport: 11,6 Import: 2,1
3,2 %	3,4 %	10,3 %	1,6 %	1,2 %

Qashqadaryo viloyati, jahonning 80 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (23,7 %), AQSH (3,4 %), Turkiyada (20,5 %), Rossiyada (9,1 %), Niderlandiyada (3,2 %), BAA da (3,4 %), Pokistonda (3,6 %), Germaniyada (3,2 %), Qozog'istonda (2,1 %), Yaponiyada (3,1 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Niderlandiya va BAA davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 16 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 11 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy (271,3 mln AQSH dollari), AQSH (118,7 mln. AQSH dollari), Rossiya (103,9 mln. AQSH dollari), Birlashgan Arab Amirli (38,9 mln. AQSH dollari), Qozog'iston (24,6 mln. AQSH dollari), Misr (19,4 mln. AQSH dollari), Pokiston (40,8 mln. AQSH dollari), Yaponiya (35,6 mln. AQSH dollari), Niderlandiya (36,9 mln. AQSH dollari) va Turkiya (235,1 mln. AQSH dollari), Eron Islom Respublikasi (6,5 mln. AQSH dollari), Germaniya (37,1 mln. AQSH dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 7 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda




Tovar va xizmatlarning import tarkibi,

(jamiga nisbatan foizda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 107,3 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari 65 424,8 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2023- yilning mos davriga nisbatan 33,3 % ga) ko'paydi.

Shuningdek, 2,7 ming tonna dukkakli sabzavotlar 27 782,2 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 36,0 % ga ko'paygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (14,4 %), Afgʻoniston (15,3 %), Qozogʻiston (9,9 %) va Rossiya Federatsiyasi (19,7 %), davlatlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan toʻplangan tajriba bilan ham bogʻliqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xoʻjaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratmoqda.